

**Jismoniy va yuridik shaxslar hamda inspeksiya o'rtasidagi nizolarni sudgacha hal qilish
bo'yicha apellyatsiya kengashi to'g'risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Jismoniy va yuridik shaxslar hamda inspeksiya o'rtasidagi nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha apellyatsiya kengashining (keyingi o'rinlarda — Apellyatsiya kengashi) maqomi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Apellyatsiya kengashi inspeksiya huzurida nizolarni sudgacha hal qilish maqsadida tuziladigan kollegial-maslahat organi hisoblanadi.

Apellyatsiya kengashi a'zolari o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

3. Apellyatsiya kengashi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

4. Apellyatsiya kengashi davlat organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolardan mustaqil ravishda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi va ular bo'yicha xulosalar tuzadi.

2-bob. Apellyatsiya kengashining asosiy vazifalari

5. Quyidagilar Apellyatsiya kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

jismoniy va yuridik shaxslar hamda inspeksiya o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni sudgacha ko'rib chiqish va xulosa qabul qilish orqali ularni hal qilish choralari ko'rish;

murojaatni ko'rib chiqishda qonun hujjatida turlicha talqin etilishi mumkin bo'lgan normalar aniqlangan, u amaliyotda noto'g'ri yoki ziddiyatli tarzda qo'llanilgan taqdirda, ularni belgilangan tartibda rasmiy sharhlashni tashkillashtirish bo'yicha choralarni ko'rish;

murojaatni ko'rib chiqishda aniqlangan qonun hujjatlaridagi bo'shliqlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritish.

6. Apellyatsiya kengashi murojaatlarni ko'rib chiqishda:

teng huquqlilik, xolislik, qonuniylik, kollegiallik va huquqni qo'llash amaliyotining birxilligini ta'minlash;

murojaat etuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarida bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklarni murojaat etuvchining foydasiga talqin qilish prinsiplariga asoslanadi.

3-bob. Apellyatsiya kengashining huquq va majburiyatlari

7. Apellyatsiya kengashi murojaatni ko'rib chiqishda quyidagi huquqlarga ega:

murojaat etuvchilar, shuningdek, boshqa manfaatdor shaxslardan murojaatni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va ma'lumotlarni so'rab olish;

davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlaridan Apellyatsiya kengashi vakolatlariga taalluqli masalalar bo'yicha ma'lumotnomalar, axborot-tahliliy materiallarni belgilangan tartibda so'rash va bepul olish;

qo'shimcha ekspertiza tayinlash, uni o'tkazish uchun mustaqil ekspert va maslahatchilarni jalb etish;

murakkab masalalarni o'z ichiga olgan murojaatlarni ko'rib chiqish uchun Apellyatsiya kengashi a'zolaridan ishchi va ekspert guruhlarini tashkil etish;
zarurat bo'lganda, murojaatlarni ko'rib chiqishda qatnashish uchun davlat organlari, ilmiy va ta'lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlaridan mutaxassislar va ekspertlarni taklif qilish.

Apellyatsiya kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

8. Apellyatsiya kengashi murojaatni ko'rib chiqish jarayonida quyidagilarga majbur: qonun hujjatlariga va mazkur Nizom talablariga qat'iy rioya qilish; fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitishga, ularning shaxsiy hayotiga aralashuvga yo'l qo'ymasligi;

murojaatni ko'rib chiqish yuzasidan qabul qilingan xulosalar haqqoniyligini va asoslanganligini ta'minlashi;

inspeksiya faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlarga amal qilishi;

inspeksiya va uning mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

inspeksiya va uning mansabdor shaxslari faoliyat ko'rsatishi uchun to'sqinlik qilmasligi;

murojaatni ko'rib chiqish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, sir saqlanishiga rioya qilishi.

Apellyatsiya kengashiga murojaatni ko'rib chiqish jarayonida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

4-bob. Apellyatsiya kengashi faoliyatini tashkil etish tartibi

9. Apellyatsiya kengashining tarkibi inspeksiya boshlig'ining buyrug'i bilan ikki yarim yil muddatga tasdiqlanadi.

Apellyatsiya kengashi 7 nafardan 11 nafargacha a'zolaridan iborat tarkibda tuzilishi mumkin.

Apellyatsiya kengashining tarkibiga uning raisi, rais o'rinbosari, kotibi va boshqa a'zolari kiradi.

Apellyatsiya kengashi a'zoriga amaliy tajribaga va obro'-e'tiborga ega inspeksiyaning markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlari va xodimlari, shuningdek sohada katta amaliy tajriba yoki ilmiy salohiyatga ega bo'lgan obro'li fuqarolar qabul qilinadi.

Bunda, inspeksiyaning markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlari yoki xodimlari hisoblanmagan Apellyatsiya kengashi a'zolari jami Kengash a'zolarining beshdan bir qismidan oshib ketmasligi lozim.

Apellyatsiya kengashi raisi va o'rinbosari uning a'zolari tomonidan Apellyatsiya kengashi a'zolari orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

10. Quyidagi holatlarda Apellyatsiya kengashining raisi, rais o'rinbosari, kotibi va a'zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

ular tomonidan Apellyatsiya kengashi tarkibidan chiqish to'g'risida ariza berilganda;

ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bekor qilinganda;

Apellyatsiya kengashining majlislarida muntazam ravishda ishtirok etmaganda;

mazkur Nizomning 8-bandida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topilganda;

vafot etganda.

11. Quyidagi hollarda Apellyatsiya kengashi a'zosi Kengash kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan majlisda ishtirok etishi mumkin emas va rad qilinishi lozim, agar u:

ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligi va beg'arazligiga shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa; taraf yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning qarindoshi bo'lsa.

12. Apellyatsiya kengashining raisi:

Apellyatsiya kengashi faoliyatiga rahbarlik qiladi va Kengash zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Apellyatsiya kengashining majlislarini chaqiradi va unda raislik qiladi;

Apellyatsiya kengashi vakolatiga taalluqli masalalarni uning ko'rib chiqishi uchun kiritadi;

davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarda Apellyatsiya kengashi nomidan ish ko'radi;

Apellyatsiya kengashi a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Apellyatsiya kengashi nomidan xulosalarni, majlislar bayonnomalarini va boshqa hujjatlarni imzolaydi;

Apellyatsiya kengashi majlislari kun tartibini belgilaydi, Apellyatsiya kengashi va taraflarni chaqiradi;

Apellyatsiya kengashi tomonidan qabul qilingan xulosalarning ijrosini monitoring qiladi;

yuklangan vazifalarning bajarilishi bo'yicha Apellyatsiya kengashi a'zolari ishini muvofiqlashtiradi;

inspeksiyaning rasmiy veb-saytida va boshqa resurslarda joylashtiriladigan Apellyatsiya kengashining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar mazmuni bo'yicha takliflar kiritadi va uni inspeksiya boshlig'i bilan kelishadi;

Apellyatsiya kengashi tomonidan qabul qilingan xulosalar nizolarni hal qilishda inobatga olinishi yuzasidan inspeksiya boshlig'i bilan hamkorlik qiladi;

Apellyatsiya kengashi ishining samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqa harakatlarni bajaradi.

13. Apellyatsiya kengashining raisi bo'lmagan taqdirda, uning vazifalarini rais o'rinbosari bajaradi.

14. Apellyatsiya kengashining kotibi:

murojaatlarni qabul qiladi va ro'yxatdan o'tkazadi;

Apellyatsiya kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, inspeksiya xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

kun tartibiga muvofiq Apellyatsiya kengashi majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

Apellyatsiya kengashi majlisi o'tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini Apellyatsiya kengashining raisi bilan kelishadi;

Apellyatsiya kengashining a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni Apellyatsiya kengashi majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

kun tartibidagi masalalarni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan materiallarni Apellyatsiya kengashi a'zolariga tarqatadi;

Apellyatsiya kengashi xulosalarining inspeksiya tomonidan inobatga olinishi yoki rad etilishi holati ustidan monitoring olib boradi hamda uning natijalarini Apellyatsiya kengashi majlisida ko'rib chiqish bo'yicha takliflar kiritadi;

Apellyatsiya kengashi majlisining xulosasini va bayonnomasini rasmiylashtiradi hamda xulosaning Apellyatsiya kengashi a'zolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi;

Apellyatsiya kengashining faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

Apellyatsiya kengashining samarali ishlashini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

15. Apellyatsiya kengashida jismoniy va yuridik shaxslarning inspeksiya yoki mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) yoxud harakatsizligi natijasida o'z huquqlari va erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari buzilganligi haqidagi murojaatlari mazkur Nizomga ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq ko'rib chiqiladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar nizoli masalani Apellyatsiya kengashida ko'rib chiqish uchun ushbu inspeksiyaga yozma (elektron) tarzda murojaat qiladi.

Inspeksiya boshlig'i (yoki uning o'rinbosari) tomonidan murojaat uning muallifini xabardor etgan holda u kelib tushgan kundan boshlab bir kun ichida ko'rib chiqish uchun Apellyatsiya kengashiga yuboradi.

Inspeksiyaga kelib tushgan takroriy murojaatlarda Apellyatsiya kengashi vakolatiga kiradigan masalalar keltirilgan bo'lsa, inspeksiya boshlig'i mazkur murojaatni ko'rib chiqish uchun Apellyatsiya kengashiga o'z tashabbusiga ko'ra ham jo'natishi mumkin.

Inspeksiyaga kelib tushgan takroriy murojaat ko'rib chiqish uchun Apellyatsiya kengashiga jo'natilgan hollarda, bu haqda murojaat etuvchiga darhol yozma yoki elektron xabar yuboriladi.

16. Murojaat Apellyatsiya kengashiga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun mobaynida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

Yuzaga kelgan nizoli holatni ko'rib chiqish uchun tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari Apellyatsiya kengashining raisi tomonidan, istisno tariqasida, ko'pi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga darhol yozma yoki elektron xabar yuboriladi.

17. Apellyatsiya kengashining a'zolari o'z majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal qilishda o'z vakolatini boshqa shaxslarga o'tkazish huquqiga ega emas.

Apellyatsiya kengashining a'zolari:

o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun inspeksiya tomonidan tashkil etiladigan hay'at majlislarida va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etadi;

Apellyatsiya kengashi ish rejalarining loyihalarini tayyorlaydi, ularni Apellyatsiya kengashida ko'rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejaları bajarilishini ta'minlaydi;

inspeksiya faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

Apellyatsiya kengashining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar tayyorlaydi;

Apellyatsiya kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqadi va natijalari bo'yicha tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

Apellyatsiya kengashining zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

18. Apellyatsiya kengashi majlisi kun tartibining loyihasi kotib tomonidan Apellyatsiya kengashi a'zolarining takliflari va Apellyatsiya kengashi raisining topshirig'i asosida shakllantiriladi.

19. Apellyatsiya kengashining majlisini uning raisi olib boradi. Rais ishtirok eta olmagan holatlarda, majlisni uning o'rinbosari olib boradi.

Apellyatsiya kengashining majlisida inspeksiya boshlig'i, uning o'rinbosarlari va boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

Apellyatsiya kengashining majlislariga boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari hamda murojaat etuvchi yoki uning vakili taklif etilishi mumkin.

20. Apellyatsiya kengashining majlisi, agar unda Apellyatsiya kengashi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Majlisni o'tkazish uchun quorum shakllanmagan taqdirda, Apellyatsiya kengashining yangi majlisi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi.

21. Apellyatsiya kengashining xulosasi majlisda ishtirok etayotgan Apellyatsiya kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda Apellyatsiya kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

22. Apellyatsiya kengashining majlisida qabul qilingan qaror xulosa shaklida rasmiylashtiriladi. Apellyatsiya kengashi xulosasi majlisda ishtirok etgan barcha a'zolar tomonidan imzolanadi.

Xulosaga qo'shilmagan Apellyatsiya kengashi a'zosi xulosani imzolab, o'zining alohida fikrini yozma shaklda taqdim qiladi. Alohida fikr ish materiallariga qo'shib qo'yiladi.

23. Apellyatsiya kengashining majlis bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi va majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi.

24. Apellyatsiya kengashining xulosasi uch kun muddatda inspeksiya boshlig'iga ko'rib chiqish va boshqa manfaatdor taraflarga ma'lumot uchun yuboriladi.

Apellyatsiya kengashining xulosasi tavsiyaviy tusga ega bo'lib, xulosani qabul qilib olgan inspeksiya boshlig'i yoki uning o'rinbosari uni inobatga olishi yoki yozma asoslantirilgan tarzda rad etishi mumkin. Bunda, inspeksiya boshlig'i yoki uning o'rinbosari qabul qilingan qaror to'g'risida uch kun muddatda Apellyatsiya kengashi va taraflarni yozma yoki elektron tarzda xabardor qiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

25. Apellyatsiya kengashining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash inspeksiyaning o'z mablag'lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

26. Apellyatsiya kengashining faoliyati mazkur Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq bo'lib, inspeksiya boshlig'i tomonidan nazorat qilinadi.

Jismoniy va yuridik shaxslar hamda inspeksiya o'rtasidagi nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha apellyatsiya kengashi to'g'risida nizomga

ILOVA

Jismoniy va yuridik shaxslar hamda inspeksiya o'rtasidagi nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha apellyatsiya kengashida murojaatlarni ko'rib chiqish

SXEMASI

Bosqichlar	Mas'ullar	Tadbirlar	Muddat
1-bosqich	Jismoniy va yuridik shaxs (murojaat etuvchi)	Nizoli masalani Apellyatsiya kengashida ko'rib chiqish uchun ushbu Kengash tuzilgan inspeksiyaga yozma (elektron) tarzda murojaat qiladi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	Huzurida Apellyatsiya kengashi tuzilgan inspeksiya	Inspeksiya boshlig'i (yoki uning o'rinbosarlari) tomonidan murojaat uning muallifini xabardor etgan holda Apellyatsiya kengashiga ko'rib chiqish uchun yuboriladi.	Murojaat kelib tushgan kundan boshlab 1 kun ichida
3-bosqich	Apellyatsiya kengashi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Kelib tushgan murojaatni har tomonlama va puxta o'rganib chiqadi. 2. O'rganish natijalarini o'z majlislarida muhokama qiladi. 3. O'rganish va muhokamalar natijasida tuzilgan xulosa majlisda ishtirok etayotgan Apellyatsiya kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. 	Murojaat kelib tushgan kundan boshlab 15 kun ichida (zaruratga qarab, 1 oygacha muddatda)
4-bosqich	Apellyatsiya kengashi	Apellyatsiya kengashi xulosasini inspeksiya boshlig'iga ko'rib chiqish va boshqa manfaatdor tarflarga ma'lumot uchun yuboradi.	Xulosa qabul qilingan kundan boshlab 3 kun ichida
5-bosqich	Inspeksiya	<ol style="list-style-type: none"> 1. Kelib tushgan Apellyatsiya xulosasi va tegishli murojaatni ko'rib chiqadi hamda murojaat bo'yicha yakuniy qarorni qabul qiladi. 2. Qabul qilingan qaror to'g'risida Apellyatsiya kengashi va tarflarni yozma (elektron) tarzda xabardor qiladi. 	Xulosa kelib tushgan kundan boshlab 3 kun ichida